

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NAVOIYSHUNOSLIKDA TADQIQOT OLIB BORISHNING AYRIM MUAMMOLARI

Akrom MALIKOV

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
akrommalik@hotmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804921>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy tadqiqot metodologiyasi, metod, metodika masalalari, ilm va hayot o'rtaqidagi mutanosiblik zarurati haqida so'z boradi. Navoiyshunoslik metodologiyasi, sohada tadqiqotlar olib borishdagi muammolar tilga olingan va yechimlar taklif qilgan. Maqola fundamental-nazariy mazmunda ekanligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: metodologiya, metod, metodika, ilmiy tadqiqot, navoiyshunoslik, qo'lyozma, birlamchi manba.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы методологии научных исследований, методов и методик, а также необходимость соблюдения гармонии между наукой и жизнью. Освещена методология изучения творчества алишера науви, упомянуты проблемы, возникающие при проведении исследований в этой области, и предложены пути их решения. Статья ценна своим фундаментально-теоретическим содержанием.

Ключевые слова: методология, метод, методика, научное исследование, изучение творчества науви, рукопись, первоисточник.

Annotation: This article discusses the issues of research methodology, methods, and techniques, as well as the necessity of maintaining harmony between science and life. It highlights the methodology of alisher navoi studies, addresses the challenges encountered in conducting research in this field, and proposes solutions. The article is significant for its fundamental theoretical content.

Keywords: methodology, method, technique, scientific research, Navoi studies, manuscript, primary source.

Birlamchi manba bilan ishlash, fakt va dalillar asosida muayyan metodlarga tayanib tahlillar olib borish, pirovardda, hayotiy zarurat hisoblangan aniq masalalarni bevosita yoki bilvosita hal qilish, yoki hal qilishga hissa qo'shish olimning faoliyat maqsadidir. Zotan, ilmiy tadqiqotning bosh maslagi davlat, xalq va jamiyat hayotini yaxshilash, turli darajadagi xususiy va umumiy muammolarga yechim berish sanaladi. Olim davlat faoliyati, xalq hayoti va jamiyat holatiga nazar solib, barcha uchun umumi og'riqlarni davolash haqida bosh qotirar ekan, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy tanazzul va inqirozlarning sabab va oqibatlarini fundamental-nazariy jihatdan tahlil qiladi. Fanning qaysi sohasi bo'lishidan qat'iy nazar, mazkur masalalarga aloqador nuqtalarda tadqiqot olib boriladi. Aks holda, ilm va hayotning o'zaro bog'lanmasligi oqibatida ko'chirmakashlik avj oladi, hayotdan yiroq tadqiqotlar yozilgan qog'ozlar makulatura omborini to'ldiradi va hokazo.

Bunday xaotik vaziyatga tushmaslik yoki undan chiqib ketish uchun

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

metodologiya va metod masalasida har bir tadqiqotchi aniq va ravshan to‘xtamga kelib olishi shart.

Metodologiya nima?

Metodologiya maqsad-muddaoni, g‘oya va hadafni ifodalaydi. Olimning ilmga yondashuvini, tutumi va axloqiy qarashlarini qamrab oladi.

Metodologiya ilmiy faoliyatning o‘zagi, o‘qildizidir. U o‘zgarmas tabiatga ega. “Nima uchun ilm bilan bandsan?” – degan savolning fundamental javobi metodologiyani belgilab beradi. Metodologiya ilmiy tadqiqotning xamirturushi, tadqiqotning zotiy xossalardan iborat bo‘ladi. Tadqiqotchini ilm olamiga yetaklab kirgan omil, uni qiziqtirgan mavzular, uning barcha izlanishlarini birlashtirib, bir chiziqqa tizib beradigan kuch, obrazli qilib aytganda, tadqiqot DNKsi metodologiyadir.

Metod nima?

Metodologiyada joylashgan maqsad va hadafga erishish uchun yo‘l kerak. Bu yo‘l metod deb ataladi. Tadqiqotda yagona metodologiya va bir necha metodlar bo‘lishi tabiiydir [1,20]. Olimning foydalangan metodlari, o‘zi belgilagan masalani hal qilishdagi yondashuvi uning metodikasi hisoblanadi.

Navoiyshunoslikda metodologiya va metod

Insonlar jamiyat shaklida yashar ekan, sog‘lom, baxtli, xotirjam va xavfsiz hayot kechirishlari kerak. Jinoyat va haqsizlikka yo‘l qo‘ymaslik lozim. Buning uchun iymon, saxovat, mehnatkashlik, qanoat, adolat, sabr, vafo kabi xulqlarni har bir odam o‘z tabiatida shakllantirishga ehtiyoj bor. Bu fazilatlarni o‘rganish, o‘rgatish, qalb va aqlga singdirish uchun ta’sirchan manba zarur. Alisher Navoiy merosi ana shunday noyob, asosli va tan olingan ishonchli manbadir. Bu manbara suyanib jamiyatni tarbiyalash, yuksak sa’viyadagi komil insonlarni yetishtirish mumkin.

Alisher Navoiy adabiy merosining mazmun-mohiyatini, shakliy xossalarni, ya’ni shoir ifodalashni istagan g‘oyalarni san’at darajasida yuzaga chiqargan omillarni hamda mutafakkir qarashlarining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini tadqiq qilish ta’kidlangan ustuvor maqsad hosil bo‘lishi uchun ahamiyatlidir. Mazkur tadqiqotlar Alisher Navoiy asarlarini xalqqa to‘g‘ri va oson yetkazish, ulardan tarbiya hamda ta’lim uchun foydalinish poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu ikki xatboshida keltirilgan fikrlarga navoiyshunoslik fanining fundamental-metodologik ustqurmasi deb yondashish mumkin. Bu yondashuv tarixni, milliy tafakkurni, san’atni, madaniyatni o‘rganish yoki jahon xalqlari badiiy-adabiy xazinasini boyitishda Alisher Navoiyning o‘rni kabi masalalar bilan to‘ldirilib, kengaytirilaveradi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Har bir navoiyshunos tadqiqot maqsadini ushbu metodologiya zaminida barpo qilar ekan, yana quyidagi qoidalarni o‘zi uchun qat’iyan belgilab olishi hamda rioya etishi mumkin:

1. Boshqa olim ishlayotgan mavzuga daxl qilmaydi. Daxl qilsa, izn oladi va muddaosini bildiradi.
2. Hech qaysi shaklda boshqa hamkasbining ishini o‘zlashtirib olmaydi. Omonatdorlikka qat’iyan amal qiladi.
3. Hasad va ichqoralik, shuhratparastlik va izzattalablik ila o‘zgalar mehnatini kamsitmaydi.
4. Xulosa berish va fikr ifodalashda hurmatsizlik ohangi va kekinlikdan parhez qiladi.
5. Birlamchi manbalar bilan ishlaydi va emotsiyal yondashuvdan uzoq turadi.
6. Bahs odobi va mujodala madaniyatini saqlaydi.

Biz shartli sanagan ushbu yetti qoida olim metodologiyasining axloqiy tayanchlari sanaladi. Bevosita ishga kirisharkan, deylik, mana bu tartibda ish olib boradi:

1. Alisher Navoiyning barcha asarlarini asl manbalardan bir qur o‘qib chiqadi.
2. Tadqiq etishni istagani asarni obyekt sifatida tanlab, uning qo‘lyozma nusxalarini jamlash tadorigini ko‘radi.
3. Mazkur asosida olib borilgan tadqiqotlarning (maqola, dissertatsiya, monografiya, darslik va hokazo) barchasini yig‘ib, tartib bilan mutolaa qiladi, shaxsiy tahlillarini, muhim nuqtalarni qayd qilib boradi.
4. Zarur metodlarini qo‘llagan holda tadqiqotni boshlaydi.

Shu tariqa yig‘ish, qiyoslash va tasniflash metodi asosida ko‘zlagan maqsadi tomon qadam bosaveradi. Bu tadqiqotchingin metodikasiga aylanadi.

Bizningcha, har bir tadqiqotda metodologiya, metod va metodika masalalari uchun alohida bo‘lim ajratilishi lozim. Chunki ko‘plab tadqiqotlarda ilmiy ish maqsadi, g‘oyasi, qo‘llangan metodlar izohtalab holatda qolayotgandek ko‘rinadi. Yoki dissertatsiyalarning kirish qismi mazkur masalalarni ochiq va ravshan ifodalash uchun yetarli emas tuyuladi. Shuningdek, navoiyshunoslik tadqiqotlari tugal va pishiq amalga oshirilishi uchun quyidagi ishlarga ehtiyoj sezilmoqda deb o‘ylaymiz:

1. Yurtimiz va dunyo fondlaridagi Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarini fihrist asosida [3,19-35] elektron shaklda yagona platformaga jamlash.
2. Mazkur platformadagi nusxalarini ilmiy tadqiqot uchun yaroqli sanalgan va mo‘tabar deb bilinganlarini faksimil nashr etish.
3. Har bir navoiyshunosda birlamchi manba bilan ishlash malakasini shakllantirish, buning uchun maxsus o‘quv kurslari tashkil qilib, ularni o‘qitish,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

imtihon asosida hosil qilgan ko‘nikmalari tadqiqot olib borish uchun yetarli deya tasdiqlangandan so‘ng ilmiy izlanish uchun izn berish.

4. Sobiq sho‘ro davridan boshlab shu kungacha qilingan ilmiy ishlarning elektorn bazasini yaratish va tadqiqotchilarga bepul foydalanish imkoniyatini berish.

5. Yilda bir marta faqatgina navoiyshunoslik tadqiqotlari muhokamasiga bag‘ishlangan xalqaro navoiyshunoslardan anjumanini o‘tkazish. Unda Alisher Navoiy ijodini tadqiq etishga doir ahamiyatli ishlarga, nashrlarga tanqidiy-tahliliy munosabat bildiriladi.

Xulosa

Bu ishlarni yo‘lga qo‘yish bilan ushbu natijalarga erishish mumkin deb o‘ylaymiz:

1. Tadqiqotlar son emas, sifat jihatdan o‘sadi.

2. Ishlar asl bahosini oladi – pishiq va xom ishlar ajraladi. Asosli tadqiqotlardan amaliy istifoda qilish imkoniyati ochiladi.

3. Aniq va qat’iy qoidalarga tayangan navoiyshunoslik maktablari paydo bo‘lib, rosmana rivojlanish bosqichiga qadam qo‘yiladi.

Asosiysi, metologiya, metod va metodika muammosi ijobiy hal bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda masalaning nozik jihatini nazardan qochirmaslik zarur: mazkur tadbirlar fanning muayyan maqsadlarda mafkuralashib, qolipga tushib qolishiga sabab bo‘lmisin, bil’aks, erkin va axloqqa tayangan fundamental tadqiqotlarga yo‘l ochsin.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература / References):

1. Ne’matov H., Mengliyev B., Hamroyev Sh. Tilshunoslikning metodologik maslalaari. – London: GlobeEdit, 2020. – B.20.
2. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011.
3. Эркинов А. Алишер Навоий қўлёзмалари бутун жаҳон фижристини яратиш масаласи. “Алишер Навоий” халқаро журнали: 1-сон. Тошкент, 2022. – Б. 19 – 35.
4. Эркинов А. Навоийни англаш сари. – Анқара. 2021. – Б. 85 – 101.